



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices

Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th April, 2025

DIZAYN YO`NALISHIDAGI TALABALARING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

Abduqodirova Nargiza Abdurahimovna

Kamoliddin Behzod nomidagi MRDI

“Libos dizayni” kafedrasи o‘qituvchisi

Тел+:998959707372

Tayanch so`zlar: talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish, zamonaviy usullar, o‘qitish, vositalar, muammoli o‘qitish, talaba, mutaxasis.

Ключевые слова: самостоятельная работа студентов, организация, современные методы, обучение, инструменты, проблемное обучение, студент, специалист.

Key words: independent work of students, organization, modern methods, teaching, tools, problem learning, student, specialist.

Malakali kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri - bu ta’lim sifati va samaradorligini oshirishdir. Ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda o‘qitishning zamonaviy usullari, shakl va vositalari, o‘yin texnologiyalari, muammoli o‘qitish, xususan, mustaqil ta’limning noan’anaviy metodlari ham muhim o‘rin egallaydi.

Talabalarni o‘z ustida mustaqil ishlashga o‘rgatish hozirgi kunning asosiy vazifalaridan biri bo‘lib kelmoqda. Buning uchun talabaning ijodiy qobiliyatini uyg‘otish va auditoriyada olgan bilimini yanada chuqurlashtirish uchun mustaqil ishslash ko‘nikmasini shakllantirish zarur.

Mustaqil ta’lim haqida so‘z yuritganda, uni o‘qituvchi rahbarligida beriladigan ta’lim shakli (ma’ruza, seminar, amaliy dars)dan farqlab olish maqsadga muvofiq.

Mustaqil ishni tashkil qilish asosan ikki maqsadni ko‘zda tutadi:

- bo‘lajak mutaxassislarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun talabalarni o‘z ustida mustaqil ishlashga o‘rgatish;
- talabalarni mustaqil ta’lim olish yo‘li bilan bilim olishga o‘rgatish.



E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy**

Website: econfseries.com

27th April, 2025

Talabalarning mustaqil ishlashini tashkil qilishda o‘qituvchining vazifasi mustaqil ish samaradorligini ta’minlash, maslahat, amaliy yordam berish, metodik ishlanma va ko‘rsatmalar tuzish va mustaqil ta’lim natijasini nazorat qilishdan iboratdir.

Mustaqil ta’lim ikki ko‘rinishda bo‘lishi mumkin:

- o‘qituvchi tomonidan avvaldan loyihalashtirilgan ishlarni, ma’lum ko‘rstmlar asosida talabalar tomonidan o‘qituvchining qisman nazorati asosida bajariladigan mustaqil ish;
- talabaning o‘z qiziqishi va istak-xohishi asosida o‘z tomonidan rejalahshtirilgan va o‘z bilimini oshirishga qaratilgan mustaqil ish.

Ikkinci holda talabadagi ichki motivatsiya mustaqil ta’limning o‘z-o‘zini nazorat qilish orqali oldinga qo‘yilgan maqsadga erishishni nazorat qiladi. Mustaqil ta’limni tashkil qilishdagi birinchi muhim qadam o‘quv rejada mustaqil ta’lim uchun ajratilgan soatlar hajmidan kelib chiqib o‘quv materialini tanlash va uni o‘rgatish ketma-ketligini aniqlash lozim.

Shundan so‘ng mustaqil ta’limni tashkil qilish shakllari va uni bajarish uchun sarflanadigan vaqt(soati) hamda, joyi(uyda, kutubxonada, laboratoriyyada) va tashkil qilish usullarini aniqlash lozim. Bunda o‘quv metodik adabiyotlarni berilgan metodik ko‘rsatmalar bilan chegaralanib qolmasdan mustaqil ta’limni tashkil qilishning samarali usullarini izlab topish uchun ijodiy yondashmoq kerak. Masalan, guruh-guruh, juft-juft, individual ish turlari va klaster kabi interfaol usul turlaridan maqsadli foydalanish yo’llarini oldindan aniqlab, mustaqil ta’limni tashkil qilishni puxta loyihalashtirish zarur.

Bu hozirgi vaqtida ta’limda keng qo‘llanilayotgan pedagogik texnologiya va texnologik yondashuv talablariga to‘la mos keladi. Shuningdek, o‘rganiladigan har bir mavzuga mos ko‘rgazmali qurollar va tarqatma materiallar tayyorlash ham zarur. Mustaqil ta’limni amalga oshirishda talabalar faolligini oshirish ko‘zlangan natijaga erishishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bu esa talabalarda o‘rganilayotgan mavzularga nisbatan motivatsiya hosil qilish zarurligini ko‘rsatadi. Yana shuni unutmaslik kerakki, mustaqil ishni tashkil qilishda o‘qituvchi talabalarning individual xususiyatlarini, bilim darajasi, qiziqishi, qobiliyati bilan bir qatorda talabadagi uyatchanlik, ikkilanish, o‘z kuchiga ishonmaslik, xato qilib



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th April, 2025

qo‘yishdan qo‘rqish kabi tashabbuskorlikni bug‘uvchi psixologik omillarni ham hisobga olish kerak. Bundan tashqari o‘qituvchi talaba munosabatida ham talabaga nisbatan xayrihohlik, uning fikr mulohazalariga, istak-xohishiga e’tibor qaratish, yuz ifodasida esa doim o‘ta jiddiy holda emas, balki yuzda bir oz tabbasum ifodasi bilan munosabatda bo‘lish ham til o‘rgatishdagi pirovard natijani ijobiy bo‘lishini ta’minlovchi, talabada berilgan topshiriqlarni bajarishga nisbatan motivatsiyani hosil qiluvchi omillardan hisoblanadi.

Mustaqil ta’limning turli shakllari mavjud:

- Darslik va o‘quv qo‘llanmalardan ayrim mavzularni yoki qismlarni mustaqil o‘rganish. Mustaqil ta’limning bu turi odatda hali yetarlicha mustaqil ishslash ko‘nikmasiga ega bo‘lmagan birinchi kurs talabalari uchun qulay hisoblanadi. Bunday ishning natijasi seminar mashg‘ulotlari yoki kolokviumlarda, bajarilgan referatlar, individual topshiriqlar va shunga o‘xshash ishlarni bajarish orqali tekshiriladi.
- Ilg‘or axborot texnologiyalaridan foydalanish. Mustaqil ta’limning bu turidan amaliy mashg‘ulotlar va laboratoriya topshiriqlarini bajarishda samarali foydalilaniladi. Ayniqsa, internet tizimidan foydalanish, elektron darsliklardan va masofaviy ta’lim imkoniyatidan foydalanish yangi axborotlar olish imkonini beradi. Internetdan foydalanish orqali talabalar o‘zlarini qiziqtirgan mavzularga oid turli qo‘sishimcha va yangi ilmiy amaliy ma’lumotlar olishlari va ularni ijodiy tahlil qilishlari, hamda o‘z izlanishlariga tadbiq qilishlari mumkin. Mustaqil ta’lim orqali talabada mustaqil fikrlash, voqeа-hodisalarga nisbatan o‘z fikriga ega bo‘lish, qiyin vaziyatlarda tez qarorga kelish, bilimlarni yanada chuqurroq o‘zlashtirish, mustaqil tadqiqot ishlarini olib borishda xotiraning ichki rezervlaridan foydalana olish kabi xislatlar va ko‘nikmalar shakllantiriladi.

Mustaqil ta`lim topshiriqlarini talabalar quyidagi ko`rinishlarda tayyorlaydilar.

Referat tayyorlash. Talabaga qiyinchilik darjasini uning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyati va bilim darajasiga muvofiq bo‘lgan biror mavzu bo‘yicha referat tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba asosiy adabiyotlardan tashqari qo‘sishimcha adabiyotlardan (monografiyalar, ilmiy uslubiy maqolalar, internetdan olingan ma’lumotlar, elektron kutubxona materiallari va h.k.) foydalanib materiallar yig‘adi,



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th April, 2025

tahlil qiladi, tizimga soladi va mavzu bo'yicha imkon darajasida to'liq, keng ma'lumot berishga harakat qiladi. Zarur hollarda o'qituvchidan maslahat va ko'rsatmalar oladi. Yakunlangan referat kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

Ko'rgazmali vositalar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o'zlashtirish uchun yordam beradigan ko'rgazmali materiallar (jadvallar, chizmalar, rasmlar, harakatlar, maketlar, modellar, grafiklar, namunalar va h.k.) tayyorlash topshiriladi. Mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar beriladi. Ko'rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir nechta talabaga topshirish ham mumkin.

Mavzu bo'yicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzu bo'yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo'lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan savollar tuzish topshiriladi. Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash. Talabaga biron bir mavzu bo'yicha (mavzuni talabaning o'zi tanlashi ham mumkin) ilmiy (referativ) xarakterda maqola, tezis yoki ma'ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiytadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to'playdi, tahlil qiladi, zarurlarini ajratib olib, tartibga soladi, shaxsiy tajribasi va bilimi, ilmiy natijalariga asoslangan holda qo'shimchalar, izohlar kiritadi, o'z nuqtai-nazarini bayon etadi va asoslaydi. Bunda talaba o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlaydi. Tayyorlangan maqola, tezis yoki ma'ruza kafedrada himoya qilinadi. Talaba mustaqil ishini samarali tashkil etishda:

- tizimli yondoshish;
- barcha bosqichlarini muvofiqlashtirish va uzvylashtirish;
- bajarilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish;
- tashkil etish va nazorat qilish mexanizmini takomillashtirib borish zarur

Talaba mustaqil ishini nazorat qilish va baholash:

- talaba mustaqil ishini nazorat qilish o'quv mashg'ulotlarini bevosita olib boruvchi o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.
- talaba mustaqil ishini nazorat qilish turlari va uni baxolash mezonlari ON va YN bo'yicha baholash shkalasiga muvofiq amalga oshiriladi.



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th April, 2025

- fan bo'yicha talabalarning mustaqil ishlari bo'yicha o'zlashtirishi muntazam ravishda talabalar guruqlarida, kafedra yig'ilishida muhokama etib boriladi.
- talabaning mustaqil ishi kafedra arxivida ro'yxatga olinadi va bir o'quv yili mobaynida saqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqil ta'limni tashkil qilishda talabaning kompyuter tizimda ishlash tayyorgarligi, psixologik imkoniyatlaridan kelib chiqib, ta'lim shakllarini tanlash ta'lim samaradorligini oshiradi va talabalarda o'rganilayotgan mavzuga nisbatan motivatsiya hosil qiladi.

Haqiqiy ta'lim har doim o'z-o'zini tarbiyalashdir, bu muayyan yoshdan boshlab, insonning e'tiqodi va doimiy mashqlari asosida amalga oshirilishi mumkin. Talaba agar mustaqil ishlashni o'rganmasa, bu sohani chuqur egallay olmaydi. Kitoblar, darsliklar bir vosita, xolos. Sohani faqat kitob yoki o'qituvchidan o'rganib bo'lmaydi. Sohadagi yechimlarni qidirish ustida mustaqil izlanish talab etiladi.

Adabiyotlar:

1. Xusainov R.R. "Oliy ta'limda fanlarni o'qitish sifatini oshirishda mustaqil ta'limning roli" Toshkent. Zamonaviy ta'lim. 2016 y. 4-son
2. "Oila pedagogikasi"fanidan talabalar mustaqil ta`limini tashkil etish bo'yicha uslubiy qo'llanma F.Odinaboboyev - Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Denov-2021yil.

Internet saytlari

1. www.Ziyonet.Uz
2. www.bookshunt.ru